| <b>TURIZM XIZMATLARINI TASHKIL ETISHDA TRANSFORMATSIYALASH JARAYONLARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....</b>                                                                     | <b>631</b> |
| <b>Tajieva Shaxnoza Mamarejabovna</b>                                                                                                                                       |            |
| <b>TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING AQSH TAJRIBASI.....</b>                                                                                    | <b>642</b> |
| <b>Rahimov Akmal Matyaqubovich</b>                                                                                                                                          |            |
| <b>INSON KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH ORQALI KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH .....</b>                                                                              | <b>653</b> |
| <b>Ochilov Akram Odilovich, Xasanova Aziza Ikromovna</b>                                                                                                                    |            |



## MINTAQA IQTISODIY SALOHIYATINI OSHIRISHNING ILMIY- NAZARIY JIHATLARI

**Turayev Og‘abek Kaxramonovich**

Abu Rayhon Beruniy nomidagi  
Urganch Davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0000-0003-1238-9052

E-mail: [ogabek.turayev@urdu.uz](mailto:ogabek.turayev@urdu.uz)

### Annotatsiya

Maqolada mintaqqa iqtisodiy salohiyati tushunchasi bo‘yicha olimlarning zamonaviy qarashlari tizimlashtirilgan. Shuningdek, olingan natijalarga muvofiq mintaqqa iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** mintaqqa iqtisodiy salohiyati, hududiy rivojlanish, iqtisodiy resurslar, investitsiya salohiyati, ishlab chiqarish infratuzilmasi, mehnat resurslari, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi, innovatsion rivojlanish, mintaqaviy raqobatbardoshlik, iqtisodiy o‘sish omillari, iqtisodiy diversifikatsiya, strategik rejalashtirish, hududiy iqtisodiyot, modernizatsiya jarayonlari, barqaror rivojlanish

### Аннотация

В статье систематизированы современные взгляды ученых на понятие экономического потенциала региона. Также Полученным результатам разработаны научное предложение и практические рекомендации, направленные на повышение экономического потенциала региона.

**Ключевые слова:** экономический потенциал региона, региональное развитие, экономические ресурсы, инвестиционный потенциал, производственная инфраструктура, трудовые ресурсы, эффективность использования природных ресурсов, инновационное развитие, региональная конкурентоспособность, факторы экономического роста, экономическая диверсификация, стратегическое планирование, региональная экономика, процессы модернизации, устойчивое развитие

### Abstract

The article systematizes contemporary scholarly views on the concept of a region's economic potential. Based on the obtained results, a scientific proposal and practical recommendations were developed aimed at increasing the region's economic potential.

**Keywords:** regional economic potential, regional development, economic resources, investment potential, production infrastructure, labor resources, efficiency of natural resource use, innovative development, regional competitiveness, factors of economic growth, economic diversification, strategic planning, regional economy, modernization processes, sustainable development

### KIRISH

Mintaqalarning samarali iqtisodiy rivojlanishi muammosi jahon globallashuvining zamonaviy sharoitida alohida dolzarblik kasb etmoqda. Mintaqaviy

iqtisodiy salohiyat har qanday hududni rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi, chunki u nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini, balki mintaqaning raqobatbardoshligini ham belgilaydi.

Iqtisodiyotdagi globallashuv jarayonlari sharoitida doimiy o'zgarishlarning mavjudligi, mintaqaviy salohiyatni shakllantirish tamoyillarini asoslash va rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash ham mintaqaviy darajada, ham butun davlat boshqaruv tizimini takomillashtirishning eng muhim vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Hududiy iqtisodiy salohiyatdan yuqori darajada samarali foydalanishga erishish aholi turmush darajasining yuksalishiga, iqtisodiy tizimning mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi PF-60 sonli farmoni doirasida mamlakatimiz taraqqiyotini belgilovchi 100 ta maqsad ishlab chiqildi. Ushbu strategiyaning 34-maqsadida "Hududlarning muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis sohalarini rivojlantirish"[1] vazifasi qo'yilgan.

Mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish har bir fuqaroning hayot sifatini oshirishga ijobiy ta'sir etadi, shuning uchun mintaqani o'ziga xos xususiyatlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan strategiya va chora-tadbirlar ishlab chiqish zarur. Mintaqaning iqtisodiy salohiyati asosini mavjud resurslar va ulardan foydalanish bo'yicha tadqiq etilgan izlanishlar ham mavjud.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Adabiyotlar taxlil qiladigan bo'lsak D.V. Trostyanskiy, N.V. Sokolova, A.A. Mins, E.V. Lapin, I.N. Karapeychik, N.F. Reymers, N.T. Avramchikova, N.I. Rustamov, M.Sh. To'xtaeva, D.S. Sink, S. Kovalska, O.S. Fedonin, I.M. Repina, O.I. Oleksyuk, D.V. Vorogushina, Z.V. Gerasimchuk, S.A. Nazarenko, V.B. Gorban, V.O. Kalashnikova, E.G. Babkova, I.Y. Berejna, V. Pareto, P. Druker kabi olimlarning tadqiqotlarida mintaqa iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishning asosiy yo'nalishlarini aniqlab berganlar. Ularning qarashlariga ko'ra, hududlarning iqtisodiy qudratini oshirish bir necha muhim omillarga tayanadi. Avvalo, mavjud tabiiy, mehnat va ishlab chiqarish resurslaridan oqilona va samarali foydalanish zarur. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlar hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Inson kapitalini rivojlantirish, ya'ni ta'lim, malaka va ijtimoiy sohalarni mustahkamlash ham iqtisodiy o'sishning muhim tayanchidir. Bundan tashqari, ekologik barqarorlik va ijtimoiy muvozanatni ta'minlash uzoq muddatli rivojlanishning kafolati sifatida qaraladi. Nihoyat, strategik boshqaruv va samarali menejment tizimini shakllantirish esa barcha jarayonlarni yagona tizimga solib, mintaqaviy iqtisodiy salohiyatni kompleks ravishda oshirishga xizmat qiladi.

Mintaqa iqtisodiy salohiyati — hududning mavjud tabiiy, insoniy, moliyaviy, ishlab chiqarish va axborot resurslaridan barqaror va samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash qobiliyati — zamonaviy iqtisodiy nazariyada markaziy o'rin oladi. O'lka va hudud darajasida strategik rejalashtirish, innovatsiyalar, ekologik



barqarorlik va boshqaruv mexanizmlari salohiyatni oshirishda muhim omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Keltirilgan olimlar ushbu masalalarni turli nazariy yondashuv va baholash usullari orqali tahlil qilgan. [2],

“Mavjud resurslardan samarali foydalangan holda hududlarda sanoatni rivojlantirish davlatning sanoat siyosati bilan muvofiq tarzda olib borilishi kerak, uni amalga oshirishdan asosiy maqsad sanoat ishlab chiqarishini tashkil etishda innovatsiyalar sohasidagi so'nggi yangiliklarni qo'llash orqali resursdan foydalanishni optimallashtirish bo'lishi lozim. Shu nuqtai-nazardan tarmoqlar salohiyatini aniqlash va uni rivojlantirish mamlakat va uning hududlarida sanoat siyosatini samarali amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qiladi”, deb ta'kidlagan. “Innovatsion salohiyatni shakllantirishning resurs komponenti innovatsiyalarni amalga oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va moddiy, moliyaviy, axborot, ilmiy va inson resurslarini o'z ichiga oladi, ular orasida faqat axborot resurslari tugamaydi. Ma'lumki, moddiy resurslar, bir tomondan, tegishli tarmoqlarda shakllansa, ikkinchi tomondan, ular yangi ishlab chiqarish vositalarini yaratish orqali ushbu tarmoqlarda potensial imkoniyatlar yaratadi”[3]. Mintaqaviy darajadagi strategik ustuvorliklarga quyidagi fikrlarni kiritish lozim: birinchidan, hududiy rivojlanish vektori hududning ichki salohiyatini faollashtirish orqali uning o'zini-o'zi rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilishi kerak; ikkinchidan, mintaqaning rivojlanishi davlatning mintaqaviy siyosatining strategik maqsadi sifatida nafaqat iqtisodiy o'sish, balki ko'p jihatdan davlat byudjeti siyosati bilan ham belgilanadi[4].

N.V. Sokolova "mintaqaning tabiiy resurs salohiyati" deganda hududning tabiiy resurslarining fan va texnika rivojlanishining ma'lum darajasida ijtimoiy ishlab chiqarish va aholining zamonaviy va istiqbolli ehtiyojlarini ta'minlash qobiliyati deb hisoblaydi. A.A.Minsning ta'rifiga ko'ra, tabiiy resurslar deganda ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishining ma'lum darajasida jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan tabiat jismlari va kuchlari tushuniladi. E.V. Lapin «iqtisodiy salohiyat», «iqtisodiy mustahkamlik» va «xalq xo'jaligi salohiyati» atamalarining yaqinligini qayd etadi[5].

I.N. Karapeychik «iqtisodiy» va «ishlab chiqarish» salohiyatlarini tegishli ravishda iqtisodiyot va ishlab chiqarish bilan bog'liq tushunchalar sifatida ajratadi; iqtisod (iqtisodiy faoliyat) tushunchasi ishlab chiqarishga nisbatan umumiyroq, degan fikrni ilgari suradi[6]. Tabiiy sharoitlar jamiyat hayoti va faoliyati uchun zarur bo'lgan, lekin odamlarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish faoliyatida bevosita ishtirok etmaydigan tabiat jismlari va kuchlaridir[7].

N.F. Reyemers tabiiy resurs salohiyatini tabiiy tizimlarning insoniyatni o'ziga zarar etkazmasdan zarur mahsulotlar bilan ta'minlash yoki ma'lum bir tarixiy tipdagi iqtisodiyot doirasida foydali ishlarni bajarish qobiliyati deb belgilaydi[8]. Mintaqaning iqtisodiy salohiyati bevosita texnologiyalarni rivojlanish darajasi va moddiy resurslardan foydalanish darajasiga bog'liqligiga N.T. Avramchikova o'z tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratgan bo'lib, hudud salohiyatini to'g'ri boshqarish iqtisodiyotni raqobatbardoshligini ta'minlovchi asos ekanligini ta'kidlagan[9].

N.I. Rustamov va M.Sh. To'xtaevlar hudud salohiyatini resurslardan foydalanishning nazariy asoslari orqali yoritgan va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish asoslari baholangan[10]. Mintaqa salohiyatidan foydalanish samaradorligi tushunchasini shakllantirish uchun «samaradorlik» mohiyatiga doir ilmiy yondashuvlarni ham tahlil qilish zarur. Klassik ta'rifga ko'ra «samaradorlik» — «olingan natijaning uni ta'minlagan xarajatlarga nisbati»dir[11].

D.S. Sink samaradorlikni tizimli boshqaruvning kompleks elementi sifatida (amaldorlik, tejamkorlik, sifat, foydalilik, mehnat unumdorligi, mehnat hayoti sifati va innovatsiyalar) ko'radi[12]. Shundan kelib chiqib, hudud salohiyatidan foydalanish samaradorligini faqat «natija–xarajat» nisbati bilan cheklash yetarli emas. U ko'p omilli ta'sirlar orqali shakllanuvchi tizimli kategoriya bo'lib, mintaqaning murakkab iqtisodiy tizim sifatidagi holatini baholash uchun keng ko'lamli tadqiqotni talab etadi. Demak mintaqani iqtisodiy imkoniyatlarini baholashda mavjud resurslar va ulardan foydalanish darajasi, zaxiralar, ishlab chiqarish kuchlari joylashuvi, innovatsion faoliyatni rivojlanganlik darajasi, aholi soni va salohiyatiga alohida e'tibor berish zarur. Demak, bugungi kunda "tabiiy resurs salohiyati" toifasini aniqlash, uning tuzilishi va baholash usullari bo'yicha konsensus mavjud emas. Olimlar ushbu konsepsiyaning chegaralarini turli yo'llar bilan belgilaydilar, uni turli mazmun bilan sarmoya qilishadi. Tabiiy resurs salohiyati global, milliy, mintaqaviy va mahalliy darajada ko'rib chiqilishi mumkin.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda mintaqalarning samarali iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha nazariy asoslari tahlil qilingan. Nazariy qismda xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar kontent tahlili orqali o'rganildi, turli konsepsiyalar qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlab chiqildi. Mintaqani iqtisodiy imkoniyatlarini baholashda mavjud resurslar va ulardan foydalanish darajasi, zaxiralar, ishlab chiqarish kuchlari joylashuvi, innovatsion faoliyatni rivojlanganlik darajasi, aholi soni va salohiyatiga alohida bo'yicha umumiy ma'lumotlar tahlil qilingan va takliflar ishlab chiqish bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarni nazariyasidan samarali foydalanildi. Mintaqaning tabiiy resurs salohiyatidan oqilona foydalanish tizimlilik, murakkablik, optimallik, sinergiya, o'zini-o'zi yangilash tamoyillariga asosida ularni ta'sirlarini ustuvorlik darajasi belgilandi. Mazkur metodik asos tadqiqot natijalarini nazariy qarashlar bilan uyg'unlashtirish, muammolarni kompleks ko'rib chiqish hamda amaliy xulosalar ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Mintaqaviy darajada tabiiy resurs salohiyatini o'rganish eng katta e'tiborni talab qiladi. Mintaqaning tabiiy resurs salohiyatini barqaror takror ishlab chiqarish qobiliyatini saqlab qolgan holda ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishining ma'lum bir bosqichida iste'mol qiymatini ishlab chiqarishning mumkin bo'lgan maksimal hajmini ta'minlaydigan tabiiy resurslar va tabiiy sharoitlar majmui sifatida belgilash taklif etiladi. Mintaqa iqtisodiy salohiyati o'z ichiga ko'p yo'nalishlarni qamrab oladi. Bu jihatdan, soha va tarmoqlarni tuzilishi,

ularning tarkibi yalpi holda mintaqa salohiyatini aks ettiradi. Shuningdek, mintaqa iqtisodiy salohiyati faoliyatni tashkil etishdagi ishlab chiqarish, bozor, tabiiy resurs va ishlab chiqarish omillari hamda ijtimoiy sohalarini qamrab oladi. Mintaqaning tabiiy resurs salohiyatidan oqilona foydalanish tizimlilik, murakkablik, optimallik, sinergiya, oʻzini-oʻzi yangilash tamoyillariga asoslanadi. Tizimlilik prinsipi tabiiy resurs potensialining tarkibiy elementlari oʻrtasida uning koʻpayishi va faoliyatining yaxlitligini taʼminlaydigan aloqalarni oʻrnatishni oʻz ichiga oladi (1-jadval).

**1-jadval**

**Mintaqa salohiyati iqtisodiy mohiyatini anglash va aniqlash boʻyicha ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish[13]**

| <b>Mualliflar</b>                           | <b>Yondashuvning mohiyati</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|---------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Kovalska S[14].                             | Resurs yondashuv asosida “salohiyat” tushunchasini “resurslar” bilan tenglashtiriladi. Iqtisodiy salohiyat va hudud salohiyati mavjud boʻlgan resurslar majmuasi sifatida tushuniladi. Salohiyat hudud faoliyati yoki rivojlanishi uchun zarur boʻlgan turli xil resurslar yigʻindisi sifatida qaraladi. Resursiy yoʻnalish iqtisodiy oʻsishning dolzarb muammolarini tadqiq etishning asosini tashkil etadi                                                                                                                                                              |
| O.S Fedonin, I.M. Repina, O.I. Oleksyuk[15] | Faktorli yondashuv boʻyicha salohiyat moddiy va mehnat omillari tizimi sifatida tasavvur etiladi, ular ishlab chiqarish maqsadlariga erishishni taʼminlaydi. Bu yoʻnalishdagi olimlar iqtisodiyot rivojlanish samaradorligini tadqiq etish faqat resurslardan foydalanish darajasiga emas, balki ishlab chiqarishning salohiyat imkoniyatlariga asoslanishi lozimligini taʼkidlaydilar                                                                                                                                                                                    |
| D.V. Vorogushina[16]                        | Natijaviy yondashuv boʻyicha iqtisodiy salohiyat xoʻjalik subyektlari oʻrtasidagi iqtisodiy va ishlab chiqarish munosabatlarining natijasi sifatida koʻriladi. U mavjud resurslardan samarali foydalanish orqali moddiy neʼmatlar va xizmatlarni yaratish qobiliyatini aks ettiradi. Salohiyat tizimning tuzilishi va funksiyalari birligini ifoda etuvchi yaxlit tushuncha sifatida qaraladi. Bu yondashuvda eʼtibor obyektning tuzilishi va uning funksional elementlariga qaratilgan boʻlib, salohiyatning shakllanishi va samaradorligini taʼminlashga yoʻnaltirilgan |
| Z.V. Gerasimchuk[17]                        | Funksional yondashuv boʻyicha iqtisodiy salohiyat uning tarkibiy qismlarining belgilangan vazifalarni bajarish qobiliyati sifatida koʻriladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
| S.A. Nazarenko[18]                          | Maqsadli yondashuv boʻyicha iqtisodiy salohiyat milliy xoʻjalik tarmoqlarining umumiy qobiliyati sifatida qaraladi. U xoʻjalik subyektlarining mavjud resurslar miqdori, sifati va xilma-xilligi sharoitida uzoq muddatli faoliyat va strategik maqsadlarga erishish qobiliyatini anglatadi.                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| Gorban V.B.[19]                             | Tizimli yondashuv boʻyicha salohiyat koʻp elementli, murakkab iyerarxik bogʻlanishlarga ega tizim sifatida talqin etiladi va makrotizim komponentlarining oʻzaro hamkorlik qobiliyatini ifoda etadi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| Kalashnikova V.O.[20]                       | Integral yondashuvi boʻyicha iqtisodiy salohiyat iqtisodiyot holatining integral tavsifi sifatida tushuniladi. Mehnat resurslar salohiyati esa aholi, jamoa yoki hududning moddiy va intellektual resurslardan foydalanib, maʼnaviy va moddiy qadriyatlar yaratishga qodir boʻlgan                                                                                                                                                                                                                                                                                        |



| Mualliflar        | Yondashuvning mohiyati                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|-------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|                   | kasbiy mehnat faoliyatini amalga oshirish qobiliyati sifatida belgilanadi.                                                                                                                                                                                                                                                    |
| Babkova E.G.[21]  | Ijtimoiy yo‘naltirilgan yondashuvi bo‘yicha iqtisodiy salohiyat ne‘matlar va xizmatlar yaratish borasida xo‘jalik faoliyati subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar majmuasi va ushbu munosabatlarning xususiyatlari sifatida qaraladi                                                                                           |
| Berezna I.Yu.[22] | Jarayonli yondashuv bo‘yicha makroiqtisodiy tizim salohiyati uning boylikni uzluksiz ravishda iste‘mol qilish va ishlab chiqarish, uni transformatsiya qilish qobiliyati nuqtai nazaridan ko‘riladi. Iqtisodiy salohiyat darajasi esa tizim transformatsiya qila oladigan resurslar hajmi va imkoniyatlariga qarab aniqlanadi |

Italiyalik iqtisodchi V. Pareto[23] iqtisod fanlarida samaradorlik konsepsiyasining asoschilaridan biri-samaradorlikning ikki yirik tizim-ostini ajratadi: ijtimoiy va iqtisodiy. U jamiyat farovonligini iqtisodiy resurslar, texnologiyalar va takror ishlab chiqarish jarayonlarining optimal taqsimlanishi bilan bog‘laydi. Hozirgi vaqtda samaradorlik va optimallik kategoriyalarini qiyoslash bilan ko‘plab olimlar, optimallik mavjud cheklovlar sharoitidagi shartli optimum sifatida qaraladi. optimallikni ijtimoiy-iqtisodiy tizim samaradorligining eng yaxshi holati sifatida belgilamoqdalar. P. Druker[24] ta’kidlaydiki, samaradorlik baholash maqsadlariga qarab o‘zgarishi mumkin. Ya’ni har qanday subyektiv afzallik jarayon yoki hodisa samaradorligi haqidagi xulosani o‘zgartirishi mumkin; shu bois samaradorlikni subyektiv, shaxsiy baholash sifatida qabul qilish taklif etiladi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki Mintaqa iqtisodiy salohiyatini va uning samarali foydalanishini baholash masalalarini hal etish uchun mos uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Bu yondashuvlar mintaqa darajadagi iqtisodiy tizim imkoniyatlarini tezkor aniqlash, yashirin zaxiralarni fosh etish va ulardan samarali foydalanish yo‘llarini belgilash imkonini berishi lozim. Shuning uchun zamonaviy olimlarning tadqiqot natijalarini resurs yo‘nalishi nuqtai nazaridan umumlashtirgan holda, mintaqa salohiyatini mavjud resurslarga asoslangan holda faoliyat ko‘rsata oladigan mintaqaviy iqtisodiy tizim qobiliyati sifatida qarash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Shuningdek, mintaqa salohiyatini moddiy, ilmiy, mehnat, kadrlar, energetik, tabiiy, moliyaviy, innovatsion va investitsion imkoniyatlar majmuasi sifatida qarash lozim. Mintaqa salohiyatni baholash bo‘yicha turli yondashuvlarni umumlashtirish uni mintaqaning mavjud resurslar tizimidan foydalangan holda belgilangan maqsadlarga erishish uchun murakkab iqtisodiy tizim sifatida faoliyat yuritish qobiliyatini aniqlashga qaratilgan chora tadbirlarni ishlab chiqish muhim masala hisoblanadi.

### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60 son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” to‘g‘risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

2. Тростянский Д.В., Айдинова М.А. “Методология и императивы эффективного использования ресурсного потенциала промышленности на региональном уровне”. Т. CEDR, 2017 й. 17-стр.
3. Pohrishchuk, B.V. and Shcherbych, V.V. (2022), "Innovative potential of regional development in the concept of circular economy", *Naukovyy visnyk Uzhhorods'koho natsional'noho universytetu. Seriya "Ekonomichni nauky"*, vol. 2 (60), pp. 78—84.
4. Кіш Г.В. Чинники регіонального розвитку та їх стратегічне управління. Держава та регіони. Серія: Економіка та підприємництво, 2022 р., № 1 (124). С.112— 115. О
5. Лапин Е.В. Экономический потенциал предприятия / Лапин Е.В. – Сумы: Университетская книга, 2002. – 310 с.
6. Карапейчик И.Н. О сущности и соотношении понятий экономического и производственного потенциалов / И.Н. Карапейчик // Бизнес Информ, 2012. № 3. Часть 1.С. 8–12.
7. Минц А.А. Экономическая оценка естественных ресурсов/А.А.Минц. М.: Мысль, 1992. 302 с.
8. Реймерс Н. Ф. Природопользовани / Н. Ф. Реймерс: Словарь-справочник. – М.: «Мысль», 2002. – 639 с.
9. Аврамчикова Н.Т “Ресурсный потенциал региона: структура и эффективность использования” журнал Т. 5, Межемент № 4. 2022 г. 54-63 стр.
10. Н.И.Рустамов., М.Ш.Тўхтаевалар “Саноат корхоналарида худудий ресурс салоҳиятидан самарали фойдаланиш йўллари” “*Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil. 93-99 бет.
11. Економічна енциклопедія: У трьох томах. Т.1 / Редкол. В. Мочерний (відп. ред.) та ін. – К.: Вид. центр «Академія», 2000. – 864 с.
12. Синк Д.С. Управление производительностью: планирование, измерение и оценка, контроль и повышение / Пер. с англ.; Общ. ред. В.И. Данилова-Данильяна / Д.С. Синк – М.: Прогресс, 1989. – 528 с.
13. Муаллиф томонидан тизимлаштирилди
14. Ковальська Л.С. Методичний підхід до оцінювання регіонального потенціалу/Л.С.Ковальська//Держава та регіони.Серія:Економіка та підприємництво. Запоріжжя: Класичний приватний університет, 2012. № 4. С. 38–43.
15. Федонін О.С Потенціал підприємства: формування та оцінка: навч. посібник / О.С. Федонін, І.М. Рєпіна, О.І. Олексюк. – К.: КНЕУ, 2004. – 316 с.
16. Ворогушина Д.В. Оценка величины и уровня использования экономического потенциала региональной экономической системы/ Д.В. Ворогушина // Вестник ВГУ, Серия: Системный анализ и информационные технологии, 2009. №2. – С.81–89.
17. Герасимчук З.В. Фактори впливу на розвиток регіональних ринків банківських послуг / З.В. Герасимчук, О.К. Гоманюк//Фінансовий простір. 2015. №1.(17).С.92–101.

18. Назаренко С.А. Формування програмно-цільового підходу до розвитку кластера / С.А. Назаренко, В.Ф. Проскура // Проблеми і перспективи розвитку банківської системи України. 2012. Вип. №34. С. 66–75.
19. Горбань В.Б. Побудова оптимальної структури економічного потенціалу підприємства / В.Б. Горбань // Наука й економіка: науково-теоретичний журнал Хмельницького економічного університету. 2008. № 1 (9). – С. 107–114.
20. Калашнікова // Прометей: регіональний збірник наукових праць з економіки / Донецький державний університет управління МОН України; Інститут економіки промисловості НАН України. – Донецьк: Юго-Восток, 2013. Вип. 2(41). С. 155–158.
21. Бабкова Э.Г. Оценка социально-экономического потенциала и кластеризация регионов Украины / Э.Г. Бабкова // Вісник Дніпропетровського університету. Серія «Економіка». 2014. Вип 8 (2). – С. 3–11.
22. Бережна І.Ю. Теоретико-економічні підходи до обґрунтування змісту інвестиційного потенціалу / І.Ю. Бережна // Держава та регіони. Серія: Економіка та підприємництво. – 2010. – № 6. – С. 253–258.
23. Парето В. Компендиум по общей социологии / В. Парето; пер. с итал. А.А. Зотова. – М.: ГУ ВШЭ, 2007. – 511 с.
24. Друкер П. Эффективное управление. Экономические задачи и оптимальные решения / Пер с англ. / П. Друкер – М.: ФАИР-Пресс, 1998. – 388 с.





# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhih:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, oktabr, 10-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



**"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali** 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



**"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710.** FOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**